

Noodatiy usulda chizish. Kuz bo'yoqlari



Kuz – yilning go'zal fasli. Daraxtlardagi barglar **sariq**, **to'q sariq**, **qizil** va **tillarang** tuslarga kiradi. Kuzda tog'lar o'zgacha go'zal va jozibali ko'rinadi.



Bugun siz kuz faslini noodatiy usulda chizasiz. Tog'larni yirtilgan qog'oz parchalari va qalam kukuni, kuzgi daraxtlarni esa barg izlari yordamida hosil qilasiz. Bu ishda siz kuz tabiatini: **tog'lar**, **kuzgi daraxtlar**, **quyosh** va **qushlarni** ko'rsatasiz.

Sizga kerak bo'ladi:

albom varag'i, yirtib olish uchun kichikroq varaq, oddiy qalam, turli shakldagi kuzgi barglar, guash, mo'yqalam, mumli bo'rlar, qog'oz sochiqlar, suv solingan stakancha, paxtali cho'plar.



Tog'lar uzoqroq ko'inishi uchun ularni ochroq va unchalik ko'zga tashlanmaydigan qilib ko'rsating. Yaqindagi tog'larni esa to'qroq qilish mumkin. Bunday usul rasmda makon chuqurligini tasvirlashga yordam beradi.

Rasm chizish bosqichlari:

1. Kichikroq qog'oz varag'ini olib, uning chetini notekis qilib yirting va asosiy varaqqa joylashtiring. Qalam uchini qirib, kukunini qog'oz sochiq bilan andaza cheti bo'ylab ishqalang. Shunda **birinchi tog' cho'qqisi** hosil bo'ladi.
2. Yirtilgan qog'oz chetini birinchisidan pastroqqa qo'ying va yana qalam kukunini ishqalang. Shunda **ikkinchi tog'** hosil bo'ladi.
3. Mumli bo'rlar yordamida kalta shtrixlar bilan **o'tlarni chizing**.
4. Daraxt bargiga bo'yoq surting. Uni qog'ozga bosib, **iz goldiring**. Har xil bo'yoqlardan foydalaning. Daraxt tanasini ham chizing.
5. **Ishni yakunlang**. Turli barglar bilan yana bir nechta iz hosil qiling. Paxtali cho'p bilan to'kilgan barglar, shuningdek, quyosh va kichik qushlarni qo'shib qo'ying.

